



keskinlashgan paytda preparatni in’eksiya yo’li bilan (parenteral) qo’llash mumkin, keyinchalik esa og’iz orqali qabul qilish bilan davoni davom ettirish tavsiya etiladi. Tolperizonni opioid analgetiklar va nosteroid yallig’lanishga qarshi preparatlar (NYQV) bilan birgalikda qo’llash davolash samaradorligini sezilarli oshiradi va shu bilan birga ularning dozalarini kamaytirish imkonini beradi. Shuningdek, u benzodiazepinlardan farqli o’laroq, opioidlar bilan birgalikda qo’llanganda uyquchanlikni kuchaytirmaydi -bu ayniqsa kunlik faoliyatni saqlab qolish kerak bo’lgan bemorlar uchun muhim afzallikdir. Individual yondashuv zaruriyati: bel og’rig’i sindromi bo’lgan bemorni davolashda og’riqning kuchi, davomiyligi va hamroh belgilarni hisobga olish zarur. Davolash usulini tanlashda bemorning oilaviy va kasbiy sharoiti, shuningdek, psixo-emotsional holati ham e’tiborga olinishi lozim. Shu tarzda tuzilgan kompleks yondashuv turli dori vositalarining o’zaro ta’siridan maksimal samarani olishga yordam beradi.

Xulosa. Midakalm (tolperizon) mushak spazmi bilan kechuvchi og’riq sindromlarini kamaytirishda samarali vositadir. Preparat mushak spazmini kamaytirib, qon aylanishni yaxshilaydi va og’riqni tezda yengillashtiradi. Bosh aylanish yoki yengil holsizlikdan tashqari jiddiy nojo’ya ta’sirlar qayd etilmagan. Kompleks davolash tarkibida Midakalm qo’llash bemorlarning tiklanish muddatini 20–30% ga qisqartiradi. Davolashda kompleks yondashuv -og’riqni kamaytirish, mushaklarni bo’shashtirish, mikrotsirkulyatsiyani yaxshilash muhim. Midakalm (tolperizon) preparati mushak spazmini bartaraf etib, og’riqni kamaytiradi va bemorlarning tiklanish muddatini sezilarli qisqartiradi. Ishxalgiya profilaktikasi muntazam jismoniy mashqlar, ergonomik holatni saqlash va sovqotishdan ehtiyot bo’lishni talab etadi.

Adabiyotlar ro’yxati.

1. Vorob'eva, O. V., & Kozlova, I. M. (2006). Comparative efficiency of bakloferon and tolperizon central muscle relaxants in complex therapy of back pain. *Voенно-медицинский журнал*, 327(9), 52-55.
2. Головачева ВА, Головачева АА, Зиновьева ОЕ, Голубев ВЛ. Толперизон в лечении острой и хронической неспецифической боли в спине. *Неврология, нейропсихиатрия, психосоматика*. 2020;12(4):137–142. DOI: 10.14412/2074-2711-2020-4-137-142
3. Lisowska B., Mihułka S., Gasik R. Farmakoterapia skrajzona w zespolach bolowych kregoslupa *Pharmacotherapy of back pain syndromes*.
4. Mukhammadjonov I. PROSPECTS IN THE FIELD OF MUSCLE RELAXANTS //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 3. – С. 1010-1015.
5. O’rmonjonov Azizbek Muhammadjon o’g’li. (2025). INKLYUZIV TA’LIMNING MOHIYATI, MAQSADI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI. (2025). *Kelajak o’qituvchisi - Kelajak Bunyodkori*, 1(2), 701-710.
6. Tursunov Ramziddin Abdixalil-o’g’li. (2025). JAMIYAT HAYOTIDA IJTIMOIIY ONG VA MA’NAVIYAT UYG’UNLIGI. *TA’LIM VA TARAQQIYOT*, 4(4), 324-330

EMOTSIONAL INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARNING O’RNI

Ilmiy rahbar: Ochilova Xursanoy Maxmud qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti dotsenti, Umumiy pedagogika kafedrası (PhD) dotsent

Nishonboyeva Sevinch Olimjon qizi

E-mail: nsvabnn@gmail.com

Kosimova Mashxuraxon Zafarjon qizi

E-mail: kosimovamashhura257@gmail.com

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Turizm fakulteti 2-kurs talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada emotsional intellekt tushunchasi va uni rivojlantirishda interfaol metodlarning o’rni keng yoritilgan. Interfaol metodlar o’quv jarayoni davomida o’quvchi va talabalarning bilimga bo’lgan qiziqishini oshiradi, ularning mustaqil fikrlash, boshqalar bilan muloqotga kirishish va ijodiy yondashuv ko’nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu ilmiy ishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining ahamiyati, o’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi hamkorlik, va shuningdek ta’limning interfaol shakllarini qo’llash orqali o’quvchi va talabalarda intellektual salohiyatini oshirish yo’llari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada interfaol metodlardan samarali foydalanish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar ham ko’rsatib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Interfaol intellect, interfaol metod, ta’lim texnologiyalari, ijodkorlik, kommunikatsiya, hamkorlik.



THE ROLE OF INTERACTIVE METHODS IN DEVELOPING INTERACTIVE INTELLIGENCE

Scientific Supervisor: Ochilova Xursanoy Maxmud qizi

Associate Professor, Chirchik State Pedagogical University, PhD, Associate Professor, Department of General Pedagogy

Nishonboyeva Sevinch Olimjon qizi

E-mail: nsvabnn@gmail.com

Kosimova Mashxuraxon Zafarjon qizi

E-mail: kosimovamashhura257@gmail.com

2nd Year Students, Faculty of Tourism, Chirchik State Pedagogical University

Annotation: This article provides a comprehensive overview of the concept of emotional intelligence and the role of interactive methods in its development. Interactive methods increase students' interest in learning during the educational process and contribute to the development of independent thinking, communication, and creative skills. This scientific work examines the importance of modern educational technologies, cooperation between teachers and students, as well as ways to enhance learners' intellectual potential through the application of interactive forms of education. In addition, the article highlights the necessary pedagogical conditions for the effective use of interactive methods in the learning process.

Keywords: interactive intelligence, interactive methods, educational technologies, creativity, communication, collaboration.

РОЛЬ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В РАЗВИТИИ ИНТЕРАКТИВНОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Научный руководитель: Очилова Хурсаной Махмуд кизи

Доцент Чирчикского Государственного Педагогического Университета, Доцент (PhD), кафедра общей педагогики

Нишонбоева Севинч Олимжон кизи

E-mail: nsvabnn@gmail.com

Косимова Машхурагон Зафаржон кизи

E-mail: kosimovamashhura257@gmail.com

Студенты 2 курса Факультета Туризма Чирчикского Государственного Педагогического Университета

Аннотация: В данной статье подробно раскрыто понятие эмоционального интеллекта и роль интерактивных методов в его развитии. Интерактивные методы повышают интерес учащихся и студентов к обучению, способствуют развитию самостоятельного мышления, коммуникации и творческих навыков. В научной работе рассматривается значение современных образовательных технологий, сотрудничество между преподавателем и учащимися, а также пути повышения интеллектуального потенциала обучающихся посредством использования интерактивных форм обучения. Кроме того, в статье указаны необходимые педагогические условия для эффективного применения интерактивных методов в учебном процессе.

Ключевые слова: интерактивный интеллект, интерактивные методы, образовательные технологии, творчество, коммуникация, сотрудничество.

Kirish:

Zamonaviy ta’lim tizimi o’quvchi va talabalarda nafaqat bilim, balki keng fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish hamda hissiy va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllanishni talab qiladi. Bu jarayonda emotsional intellektni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Emotsional intellekt nima?

Emotsional intellekt – bu shaxsning hissiy holatlarini to’g’ri baholay olish, his tuyg’ularini nazorat qilish, boshqa hissiyotlarni tushunib ularga hamdardlik bildirish va ijtimoiy munosabatlarda muvafaqqiyatli bo’lish ko’nikmalarini o’z ichiga oladi. Ta’lim jarayonida emotsional intellektni tushunish, o’qituvchilarga o’quvchilarning ichki dunyosini yaxshiroq anglashda va ularni yanada samarali o’qitishda yordam beradi. Zamonaviy pedagogik jarayonning eng muhim jihatlaridan biri, o’qituvchilarning



o’quvchilarda emotsional intellektni shakllantirishdagi o’rni va roli bo’lib, ularning ijtimoiy va hissiy rivojlanishini yanada samarali amalga oshirishga yordam beradi. Va shuningdek emotsional intellektni rivojlantirishda interfaol metodlarning o’rni beqiyosdir. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o’zaro muloqotda, o’zaro bahsmunozarada fikrlash asnosida, hamjixatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o’quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o’rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

Interfaol metodlar deganda – ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo’lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo’llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo’lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo’ladi:

- ✚ ta’lim samarasi yuqoriroq bo’lgan o’qish-o’rganish;
- ✚ ta’lim oluvchining yuqori darajada rag’batlantirilishi;
- ✚ ilgari orttirilgan bilimlarning ham e’tiborga olinishi;
- ✚ ta’lim jarayoni ta’lim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ✚ ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo’llab-quvvatlanishi;
- ✚ amalda bajarish orqali o’rganilishi

Bundan tashqari, interfaol metodlar ta’lim oluvchilar o’rtasida hamkorlik va muloqotni kuchaytiradi, bu esa jamoaviy fikrlash va muammolarni birgalikda hal etish ko’nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu metodlar orqali o’quvchilar nafaqat bilim oladilar, balki uni real hayotiy vaziyatlarda qo’llashni ham o’rganadilar. Interfaol metodlar dars jarayonini qiziqarli va samarali qiladi, bu esa o’quvchilarning darsga bo’lgan qiziqishini yanada oshiradi. Shuningdek, bu metodlar o’qituvchiga ham o’quvchilarni chuqurroq tushunish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Natijada, ta’lim jarayoni ikki tomonlama faol muloqotga asoslanib, o’quvchining shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Hozir interfaol mashg’ulotlarni olib borishda ma’lumki, asosan interfaol usullar qo’llanilmoqda. Kelgusida esa bu usullar ma’lum darajada interfaol texnologiyaga o’sib borishi maqsadga muvofiq.

Interfaol usullarni qo’llash bo’yicha amerikalik psixolog va pedagog B. Blum bilish va emotsional sohalaridagi pedagogic maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni Blum taksonomiyasi deb atashadi. (Taksonomiya – borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi).

Oqitishning interfaol talimga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda va hatto “bolalar oyini” kabi taassurot uyg’otadi.

O’qituvchi talim jarayonida interfaol talim yordamida oquvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, oz-ozini nazorat, oz-ozini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr mulohazalarini erkin bayon qilish, oz nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning echimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq boladi. Eng muhimi, interfaol metodlarni qo’llash orqali oqituvchi oquvchilarning aniq talimiy maqsadga erishish yolida ozaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yonaltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qolga kiritadi. Ta’lim jarayonida interfaol metodlardan samarali foydalanish o’qituvchidan yuqori pedagogic malaka va ijodkorlikni talab qiladi. O’qituvchi interfaol metodlarni qo’llashda darsni qanday tashkil qilish, guruhlarini qanday shakllantirish, faoliyatni qanday boshqarish va o’quvchilarni qanday rag’batlantirishni yaxshi bilishi kerak. O’quvchilarni bir-biriga hurmat bilan yondashishga, fikrlarini izchil ifodalashga, muammoli vaziyatlarga yechim topishga va jamoada ishlashga o’rgatish interfaol metodlarning asosiy maqsadidir. Shu bois, interfaol metodlar faqat dars jarayonini jonlantiribgina qolmay, balki o’quvchilarda hayotga tayyor, mustaqil fikrlaydigan shaxslarni shakllantirishga xizmat qiladi.

1. Til va adabiyot o’qitishda muammo va yechimlar;
2. Biologiya darslarida iqtidorli o’quvchilar bilan ishlashda interfaol metodlardan samarali foydalanish;
3. O’zbek tili va adabiyoti fakulteti. “Faol o’qitish metodlari” jumladan o’yin-mashq, muammoli dars, seminar, ekskursiya kabi usullar darslarni interfaol tashkil etishda ko’rib chiqilgan.

Xulosa qilib aytganda, interfaol ta’lim o’quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularni mustaqil fikrlashga, o’z qarashlarini asoslab bera olishga, jamoada hamkorlikda ishlashga o’rgatishning eng samarali vositasidir. Bunday yondashuv o’quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga



aylantiradi, ularning shaxsiy mas’uliyatini, ijodkorlik salohiyatini va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Interfaol metodlar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro ishonch, hurmat va hamkorlik muhitini yaratadi. Bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi hamda o‘quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l topa bilish, tanqidiy va mantiqiy fikrlash kabi hayotiy kompetensiyalarni shakllantiradi.

Eng muhimi, interfaol ta’lim shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni ta’minlab, o‘quvchilarda hayotga tayyor, mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy faol va ongli fuqarolarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois, har bir o‘qituvchi interfaol metodlarni ijodkorlik bilan qo‘llab, dars jarayonini zamonaviy talablarga mos tashkil etishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurboyeva D, Ta’limda emotsional intellektning o‘rni va o‘qituvchilarda emotsional savodxonlikni rivojlantirish, 2025y.
2. Abduraximov Z, Interfaol metodlar va ularning ta’lim jarayonidagi mohiyati, “Yangi O‘zbekiston pedagoglari axborotnomasi” jurnali, 2023y
3. Amanova A.N. O‘zbekistondagi gen muhandisligi sohasining istiqbollari va mavzuni o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish. “Journal of Natural Science” №2(7) 2022 y
4. Aynaqulov X, Pedagogikada interfaol metodlarning o‘rni, 2022y.
5. Taxonomy of Educational objectives, Handbook 1: Cognitive Domain 2nd edition Edition, Benjamin S. Bloom.
6. Xasanova Sh, Interfaol metodlarning ta’lim samaradorligini ta’minlashdagi o‘rni, Internation Journal of Recently Scientific Researchers` Theory, 260-264.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalari reytinglarini aniqlash tartibini takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi No: 467 – sonli qarori.
8. Mustanov U, Interfaol metodlarning zamonaviy ta’limdagi o‘rni va ahamiyati, Internation Journal of Recently Scientific Researchers, 2025y
9. Maksimova Zeboxon. Til va adabiyot o‘qitishda muammo va yechimlar. Farg‘ona davlat universiteti, 2024-yil.
10. Omonqulov Ulug‘bek Maxsiddin o‘g‘li. Biologiya darslarida iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashda interfaol metodlardan samarali foydalanish. Universal jurnal, 2025-yil.
11. Jizzax davlat pedagogika instituti. O‘zbek tili o‘qitish metodikasidan darslarni interfaol usulda tashkil qilish vositalari. Metodik qo‘llanma, 2024-yil.

REKLAMA MATNLARIDA TIL VOSITALARINING TA’SIRCHANLIK DARAJASI

Kariyeva Sevinch Rustamovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Turizm fakultet Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

Email: sevinchkariyeva@gmail.com

Alimbayeva Fazilat Rustam qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Turizm fakultet Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

Email: fazilatalimbayeva14@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada reklama matnlarida qo‘llaniladigan til vositalarining ta’sirchanlik darajasi, ularning iste’molchiga psixologik, emotsional va kommunikativ ta’siri ilmiy tahlil qilinadi. Muallif reklama matnlarining samaradorligini oshirishda metafora, anafora, alliteratsiya, antiteza, va boshqa lingvopoetik vositalarning o‘rni hamda ularning auditoriyaga ta’sir mexanizmini ko‘rib chiqadi. Maqolada xalqaro va mahalliy reklama namunalari tahlil qilinib, ularning til xususiyatlari qiyosiy tarzda yoritiladi. Natijada reklama matnlarining lingvistik samaradorligini oshirish uchun amaliy takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: reklama tili, lingvopoetik vositalar, ta’sirchanlik, psixolingvistika, kommunikativ samaradorlik

THE DEGREE OF INFLUENCE OF LINGUISTIC MEANS IN ADVERTISING TEXTS

Kariyeva Sevinch Rustamovna

Student of the Faculty of Tourism, Department of Foreign Language and Literature,
Chirchik State Pedagogical University